



ORIENTFINANSBANK



Jismoniy shaxsga bankning maxsus karta hisob raqamini (MKHR) ochish,
bank kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish qoidalariga

QO'SHILISH SHARTNOMASI

(2025 yil 06 yanvar sanasidan kuchga kiradi)

“Orient Finans” XATB Boshqaruvining 2024 yil “19” dekabrda
gi 148-sonli bayonnomasi asosida

TASDIQLANGAN



MUNDARIJA

1. Shartnoma mazmuni	3
2. Tushuncha va terminlar	3
3. Umumiy qoidalar	6
4. Tomonlarning majburiyatlari	7
5. Tomonlarning huquqlari	10
6. MKHR bo'yicha komplaens choralari	12
7. Hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari	13
8. “VISA Infinite” va “Mastercard World Elite” premium kartasi xizmatlarini mijozlarga taqdim etish shartlari	15
9. Tomonlarning javobgarligi	15
10. Korrupsiyaga qarshi shartlar	17
11. Fors-major holatlari	17
12. Nizolarni hal etish tartibi	18
13. Shartnomaning amal qilish muddati, uni tugatish va o'zgartirishi shartlari	19
14. Yakuniy qoidalar	20
15. Manzil va bank rekvizitlari	20
1-sonli ilova Xalqaro kartadan foydalanish qoidalarini	21
2-sonli ilova Milliy to'lov tizimlarida bank kartasidan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar (shartlar va xavfsizlik choralari)	28



Jismoniy shaxslarga bankning maxsus karta hisob raqamini (MKHR) ochish, bank kartlarini chiqarish va xizmat ko'rsatish qoidalariga QO'SHILISH SHARTNOMASI

"Orient Finans" XATB, keyingi o'rinlarda Bank deb ataluvchi, bir tomondan, hamda mazkur Jismoniy shaxslarga bankning maxsus karta hisob raqamini (MKHR) ochish, bank kartlarini chiqarish va xizmat ko'rsatish qoidalariga qo'shilish shartnomasini (keyingi o'rinlarda - Shartnoma), shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ariza (keyingi o'rinlarda - Ariza) berish orqali qabul qilish istagini bildiruvchi Jismoniy shaxs, keyingi o'rinlarda Karta egasi deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida kelishdilar:

1. ShARTNOMA MAZMUNI

- 1.1.** Shartnoma Jismoniy shaxsga maxsus karta hisob raqamini (keyingi o'rinlarda – MKHR) ochish va yuritishning standart (na'munaviy) shartlarini, shu jumladan hisob raqam bo'yicha milliy va xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish shartlarini belgilaydi. Barcha shartlar ushbu Shartnoma va uning ilovalarida batafsil bayon etilgan.
- 1.2.** Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasida belgilangan tartibda Karta egasining Shartnomaga qo'shilish shaklida tuziladi.
- 1.3.** Karta egasi tomonidan Arizani to'ldirilishi va imzolanishi Karta egasining Shartnomaning shartlarini to'liq va hech qanday qo'shimcha shartlarsiz qabul qilganligini tasdiqlaydi. Arizani imzolashda Karta egasi tomonidan Shartnoma shartlarini o'zgartirish uchun qo'yilgan har qanday qo'shimcha shartlar yuridik kuchga ega emas.
- 1.4.** Shartnoma, jumladan Bank Qoidolari va Tariflar (amaldagi tahriri) bilan Karta egasini tanishtirib chiqish maqsadida ularning matni Bank ofislarining axborot devorlarida va Bankning korporativ sayti www.ofb.uz da joylashtiriladi, shuningdek Bank mas'ul xodimida Karta egasining talabiga binoan taqdim qilish uchun saqlanadi.
- 1.5.** Ushbu Shartnomani tuzishdan oldin Karta egasiga Shartnoma matni va Bank Tariflari bilan tanishish huquqiga ega. Hujjatlar Bank ofislaridagi axborot devorlarida va Bankning korporativ sayti www.ofb.uz da joylashtiriladi va Karta egasi so'roviga binoan boshqa shaklda taqdim qilinadi.
- 1.6.** Agar Karta egasiga mazkur shartnoma tarkibiga kirmaydigan, Bank va Mijoz o'rtasida avval tuzilgan shartnomaga muvofiq Karta chiqarilgan bo'lsa, kartani qayta chiqarishga berilgan arizaga muvofiq Kartani qayta chiqarish amalga oshirilayotgan bo'lsa, Karta egasi avval tuzilgan shartnoma mazkur shartnomaga muvofiq yangi tahrirda tuzilishiga roziligini anglatadi va ushbu Shartnoma shartlari Karta qayta chiqarilgan sanadan boshlab amal qiladi. Bunday hollarda Tomonlar Karta qayta chiqarilgan paytdan boshlab Bank va Mijoz o'rtasida avval tuzilgan shartnoma o'z kuchini yo'qotishiga rozilik bildiradilar va buni tasdiqlaydilar.
- 1.7.** Shartnomani tuzish uchun Jismoniy shaxs mazkur Shartnomaga ko'shilish arzasini 2-ta nusxada imzolangan holtada Bankka taqdim etadi. Arizaga Kartani chiqarish va MKHR ochish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ilova qilinadi. Shartnoma Arizaning ikkala nusxasi bankning vakolatli vakili tomonidan imzolangan va imzolangan arizaning bir nusxasi Jismoniy shaxsga taqdim qilingan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

2. TUSHUNCHA VA TERMINLAR



- 2.1. Bank – "Orient Finans" XATB.**
- 2.2. Shartnoma -** Quyidagi hujjatlar majmui:
- MKHR ochish, bank kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartlarini o'z ichiga olgan mazkur shartnoma.
 - Kartadan foydalanish qoidalar.
 - Jismoniy shaxslarga bankning maxsus karta hisob raqamini (MKHR) ochish, bank kartalarini chiqarish va xizmat ko'rsatish qoidalariga qo'shilish uchun Ariza.
 - Kartani qayta chiqarish uchun Ariza.
- ushbu hujjatlar yagona shartnoma hujjatini shakllantiradi.
- 2.3. Karta (milliy va xalqaro to'lov tizimlarining plastik va virtual kartasi) -** Bank tomonidan Karta egasi nomiga chiqarilgan milliy valyuta - so'm yoki xorijiy valyutadagi (xalqaro kartalar) bank kartasi. Karta Bankning mulki hisoblanadi va Karta egasiga Bank tomonidan vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi elektron terminallar, bankomat va aloqa kanallari orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, naqd pul olish, valyuta ayirboshlash hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish vositasi. Bank kartasi debet, kredit va virtual (jismoniy qurilmasiz) bo'lishi mumkin.
- 2.4. Karta egasi –** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq to'liq muomila layoqatiga ega bo'lgan, arizani imzolash orqali ushbu shartnoma shartlari va kartadan foydalanish qoidalariga rozilik bildirgan, nomiga maxsus karta hisob raqami (MKHR) ochilgan va kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshiradigan jismoniy shaxs. Karta egasi kartaning xavfsizligi va undan foydalanish bilan bog'liq ma'lumotlarning maxfiyligi uchun javobgardir.
- 2.5. PIN kod –** bu faqat Karta egasiga ma'lum bo'lgan va naqd pulsiz operatsiyalar paytida shaxsni tasdiqlash uchun ishlatiladigan maxfiy kod. PIN-kod sir saqlanishi va uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Agar PIN-kod bir necha bor noto'g'ri kiritilsa, karta bloklanishi mumkin.
- 2.6. Milliy to'lov tizimlari (MTT) –** UZCARD va HUMO maxalliy to'lov tizimlari.
- 2.7. Xalqaro to'lov tizimlari (XTT) -** MasterCard, VISA va China UnionPay – xalqaro to'lov tizimlari.
- 2.8. XTT Qoidalar** - Tizimning ishlashini, to'lovlarni amalga oshirishni, nizolarni hal qilishni, to'lov tizimida ishtirok etish shartlarini, axborot xavfsizligi talablarini va boshqa qoidalarni belgilaydigan XTT qoidalar va tartibotlari majmui.
- 2.9. Bank Qoidalar** - Ushbu shartnomaning ilovalarida keltirilgan bank kartasidan foydalanish qoidalarining ajralmas qismi bo'lib, kartadan foydalanish tartibini, Taraflarning javobgarligini va Bank va Karta egasi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa shartlarni belgilaydi.
- 2.10. UZCARD va HUMO protsessing tizimi (MTT) -** "Yagona umumrespublika protsessing markazi" AJ (YUPM) (UZCARD) yoki "Milliy banklararo protsessing markazi" AJ (MBPM) (HUMO) mikroprotessorli kartalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlaydi, ishtirokchi-banklar bilan shartnomaviy munosabatga ega bo'lgan va tranzaksiyalarning axborot kliringini ta'minlaydi.
- 2.11. Protssessing tizimi (XTT) -** Karta yordamida operatsiyalarni amalga oshirish, operatsiyalar hisobini yuritish, bank kartalaridan foydalanish shartlarini aniqlash, shuningdek XTT va boshqa to'lov tizimlari a'zolari bilan hisob kitoblarni amalga oshirish imkonini beruvchi Bank protsessing markazining dasturiy-texnik majmuasi.



- 2.12. Maxsus karta hisobvarag'i (MKHR)** - bu bank tomonidan Karta egasi uchun ochilgan va ushbu karta yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni, shu jumladan tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni, naqd pul mablag'larini olish va shartnomada nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i.
- 2.13. Tomonlar** - Bank, Karta egasi.
- 2.14. Tariflar** – bu Mijoz tomonidan bank xizmatlari uchun to'lanadigan, Bank tomonidan tasdiqlangan haq va boshqa to'lovlar miqdorlari ro'yxati. Tariflar amaldagi qonunchilikka muvofiq Bank tomonidan bir tomonlama o'zgartirilishi mumkin. Bankning joriy tariflari Bank rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va/yoki Mijozga uning so'rovi bo'yicha taqdim etiladi.
- 2.15. Texnik (ruxsatsiz, beruxsat) overdraft** - bu maxsus karta hisobvarag'idagi mavjud qoldiqdan oshadigan miqdordagi karta operatsiyalari natijasida yuzaga keladigan salbiy qoldiq. Texnik overdraftning paydo bo'lishining sabablari har xil bo'lishi mumkin, shu jumladan ruxsatsiz to'lovlar, valyutani konvertatsiya qilish paytida valyuta kursi farqlari, kartani saqlash to'lovlari to'lash va boshqa operatsiyalar. Karta egasi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq vujudga kelgan texnik overdraftni to'lashi shart.
- 2.16. Token** – Bu bank kartasi rekvizitlarining raqamli tasviri bo'lib, Mijoz/ Karta egasi tomonidan ma'lum harakatlar amalga oshirilganidan so'ng shakllanadi. Token o'z ichiga to'lov ma'lumotini shifrlangan holda saqlaydi. Karta raqamlashtirilishi/ tokenlashtirilishi mumkin (digitalized).
- 2.17. Tokenlashtirish** – bu karta ma'lumotlarini XTT xizmatlari tomonidan beriladigan Token bilan almashtirish orqali himoya qilish tizimidir.
- 2.18. Kod so'zi** – bu bank kartasini chiqarishda Mijoz tomonidan tanlangan noyob raqamlar va/yoki harflar to'plami. Kod so'zi Bankka telefon orqali murojaat qilishda Mijozni aniqlashning (identifikatsiya qilishning) qo'shimcha vositasi bo'lib xizmat qiladi va uning shaxsini va bank operatsiyalarini amalga oshirish vakolatini tasdiqlash uchun qo'llaniladi.
- 2.19. Ariza** – bu Jismoniy shaxsga bankning maxsus karta hisob raqamini (MKHR) ochish, bank kartalarini chiqarish va xizmat ko'rsatish qoidalariga qo'shilish shartnomasiga qo'shilish arizasi, Jismoniy shaxs tomonidan Bankka taqdim qilinadigan xujjat bo'lib, ushbu shartnomada va uning ilovalarida ko'rsatilgan bank kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish shartlariga o'zining so'zsiz roziligini bildiruvchi hujjat. Ariza maxsus karta hisobvarag'ini ochish va kartani chiqarish uchun asos deb hisoblanadi.
- 2.20. Kamaymaydigan qoldiq** – bu Mijozning maxsus karta hisobvarag'ida doimo bo'lishi kerak bo'lgan minimal pul miqdori. Ushbu pul mablag'laridan kartada operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanilmaydi va shartnomaning amal qilish muddati davomida maxsus karta hisobvarag'ida saqlanadi.
- 2.21. 3-D Secure** - bu xalqaro bank kartalari bilan onlayn to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha himoyani ta'minlaydigan xalqaro xavfsizlik standarti.
- 2.22. CVV (CVC) kod** – bu bank kartasining orqa tomonida joylashgan uch xonali xavfsizlik kodi. Ushbu kod Karta egasi tomonidan onlayn to'lovlarni amalga oshirishda shaxsini tasdiqlash uchun xizmat qiladi va 3-D Secure xavfsizlik tizimining muhim elementi hisoblanadi. CVV (CVC) kodi maxfiy ma'lumotdir va ushbu ma'lumot hech qachon uchinchi shaxslarga berilmasligi lozim.
- 2.23. Slip** – bu to'lov terminali yoki bankomatda bank kartasi bilan operatsiya amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat. Slipda operatsiyani aniqlash uchun zarur bo'lgan miqdor, sana, operatsiya turi va boshqa tafsilotlar haqida ma'lumotlar mavjud. Slip qog'oz va elektron shaklda bo'lishi mumkin va onlayn-bank karta operatsiyalari tarixida saqlanadi.



- 2.24. Farmoyish / Topshiriq** - elektron to'lov vositasi yoki masofadan xizmat ko'rsatish tizimi (MXKT) dan foydalanganda Karta egasining roziligini ifodalovchi to'lovni amalga oshirish to'g'risida bankka bergan topshirig'i.
- 2.25. To'lov** - pul majburiyatini naqd pulda bajarish yoki pul mablag'larini to'lov vositalaridan foydalangan holda o'tkazish.
- 2.26. To'lov instrumenti** – bu to'lovni amalga oshirishda ishlatiladigan har qanday vosita, shu jumladan bank kartalari, elektron pullar, to'lov topshiriqlari va boshqa shunga o'xshash vositalari.
- 2.27. Premium karta** – bu Karta egasiga ushbu shartnomaning 8-bo'limida ko'rsatilgan qo'shimcha imtiyozlar va xizmatlarni taqdim etadigan bank kartasi.
- 2.28. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar** (keyingi o'rinlarda "Sanksiyalar") – bu bir yoki bir nechta davlatlar tomonidan boshqa davlatga yoki uning rezidentlariga/fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan iqtisodiy choralar. Sanksiyalar savdo, moliyaviy va boshqa iqtisodiy operatsiyalarni taqiqlash yoki cheklashda ifodalanishi mumkin.
- 2.29. Sanksiyalarni chetlab o'tish** – karta egasining hukumat yoki xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlar hukumati tomonidan o'rnatilgan cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida tranzaksiya tafsilotlariga huquqiy maqom berish yo'li bilan muayyan operatsiyalarni bila turib amalga oshirishga qaratilgan harakati.

3. UMUMIY QOIDALAR

- 3.1.** Jismoniy shaxsning (Karta egasining) Arizasiga muvofiq Bank karta yoki kartalar chiqaradi va uning nomiga MKHR yoki bir nechta MKHR ochadi hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi, ushbu shartnoma, Bank qoidalari, MTT va XTT qoidalari, hamda Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq MKHR va Kartaga bank xizmatlarini ko'rsatadi.
- 3.2.** Bank tomonidan Karta egasiga MKHR ochish faqat quyidagi shartlar bajarilgan taqdirdagina amalga oshiriladi:
- 3.2.1.** Identifikatsiya tartibidan o'tish.
- 3.2.2.** MKHR ochish uchun zarur bo'lgan to'liq hujjatlar to'plamini taqdim etish.
- 3.3.** Bank virtual va plastik kartalarni chiqaradi va ularga xizmat ko'rsatadi, jumladan:
- MasterCard.
 - VISA.
 - China UnionPay.
 - UZCARD.
 - HUMO.
- 3.4.** Kartani chiqarish, MKHR va Kartaga xizmat ko'rsatish, MKHR bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun, Bank Karta egasidan amaldagi Bank Tariflari va Shartnomaga muvofiq haq undiradi.
- 3.5.** Karta bankning mulki hisoblanadi va Karta egasiga vaqtinchalik foydalanish uchun topshiriladi.
- 3.6.** Bank o'z xohishiga ko'ra va hech qanday sabablar ko'rsatmasdan, Arizada ko'rsatilgan telefon orqali va/yoki SMS-xabarlar yuborib, va/yoki bankka Jismoniy shaxsning shaxsan o'zi murojaat qilganda, kartani berishni (qayta chiqarishni) va/yoki taqdim qilishni rad etishi mumkin.
- 3.7.** Karta egasi tomonidan foydalanilayotgan kartaning amal qilish muddati tugagach, Karta egasi kartani qayta rasmiylashtirish uchun yozma ariza berishi mumkin. Bank bunday arizani ko'rib chiqadi va keyingi davr uchun yangi kartani chiqarish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi.



- 3.8.** Mijoz bank kartasidan 1 (bir) yil davomida foydalanmagan taqdirda, Bank shartnomani bekor qilish niyati haqida mijozga mo'ljallangan sanadan oldin xabar beradi. Belgilangan muddat ichida mijoz istalgan tranzaksiyani amalga oshirib, kartadan foydalanishni qayta boshlashi mumkin. Agar mijoz kartadan foydalanishni tiklamasa, Bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish va kartaga xizmat ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega bo'ladi. Shartnomaning bekor qilinishi kartaning faolsizlantirilishiga va u bilan bog'liq hisobvaraqdan karta operatsiyalari bo'yicha foydalanish imkoniyatining to'xtatilishiga olib keladi. Foydalanmaslik deganda kartada hech qanday tranzaksiyaning amalga oshirilmasligi tushuniladi, jumladan, tovarlar va xizmatlar uchun to'lov, naqd pul echib olish va hisobni to'ldirish kabi operatsiyalar, ammo bular bilan cheklanmagan holda, tushuniladi.
- 3.9.** Faolsizlantirilgan bank kartasi hisobvaraqidagi mablag'lar Bank tomonidan kartalar bo'yicha talab qilinmagan qoldiqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladi.
- 3.10.** Ushbu Shartnomaning 3.9-bandiga muvofiq maxsus hisob raqamiga o'tkazilgan mablag'lar qoldig'ini olish uchun Mijoz Bank tomonidan belgilangan shakldagi yozma arizani Bankka taqdim etishi lozim.
- 3.11.** Bank Mijozning arizasini ko'rib chiqishni va mablag'lar qoldig'ini ariza olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida to'lashni o'z zimmasiga oladi. Bunda Mijozning shaxsi aniqlanishi va uning ko'rsatilgan mablag'larni olish huquqi tasdiqlanishi shart. Bunda Bank mijozning pul mablag'larini protsessing tomonida qayta ishlanmagan tranzaksiyalar summasiga teng miqdorda ushlab qolish huquqiga ega.
- 3.12.** Bank ushbu Shartnomada ko'rsatilgan tartib-qoidalariga rioya qilgan taqdirda, mazkur bandning shartlariga binoan kartani faolsizlantirish oqibatida Mijozda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy zararlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

- 4.1. Karta egasi quyidagi majburiyatlarga ega:**
- 4.1.1.** MKHR ochish va kartani olish uchun, Bankka:
- Shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asli.
 - Jismoniy shaxsga bankning maxsus karta hisob raqamini (MKHR) ochish, bank kartalarini chiqarish va xizmat ko'rsatish qoidalariga qo'shilish shartnomasiga qo'shilish uchun ariza.
 - Bank talablariga va amaldagi qonunchilikka muvofiq qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.
- 4.1.2.** Ariza topshirishdan oldin ushbu shartnoma shartlari, bank qoidalar va bankning joriy tariflari bilan diqqat bilan tanishib chiqishi kerak.
- 4.1.3.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, MTT va XTT qoidalar, Bank qoidalar va shartnoma shartlariga muvofiq Bank tomonidan berilgan kartani qabul qilish va undan foydalanish. Karta egasi karta yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar, shu jumladan, Karta egasining ruxsati yoki rozilgisiz amalga oshirilgan operatsiyalar uchun to'liq moliyaviy javobgar deb hisoblanadi.
- 4.1.4.** Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar (F.I.Sh, yashash va ro'yxatdan o'tgan manzili, egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, telefon raqamlari va boshqa tafsilotlar) o'zgarganda, bunday o'zgarishlar bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bankni yozma ravishda xabardor qilish. Ushbu bandda ko'rsatilgan ma'lumotlarni bankka taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim



- qilmaslik natijasida yuzaga kelgan barcha xavft-xatarlar uchun Karta egasi javobgar bo'ladi.
- 4.1.5.** Bankning amaldagi tariflariga muvofiq komissiyalar, foizlar va jarimalarni o'z vaqtida Bankka to'lash. Agar Bankning tariflarida abonent to'lovi (oylik yoki yillik) belgilangan bo'lsa, abonent to'lovi oldindan undiriladi.
- 4.1.6.** Kartani uchinchi shaxslar foydalanishi va ixtiyoriga topshirmaslik, Kartaning PIN-kodi va rekvizitlari haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash. Karta Egasi ushbu bandning buzilishi natijasida yuzaga keladigan har qanday oqibatlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
- 4.1.7.** "SMS-banking" xizmati va/yoki bankning mobil ilovasi o'rnatilgan mobil telefon raqamini uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishda yo'l qo'ymaslik.
- 4.1.8.** "SMS-banking" xizmati ulangan va/yoki bankning mobil ilovasi o'rnatilgan mobil telefon raqamidan foydalanish to'xtatilganligi haqida bankga yozma xabar berish.
- 4.1.9.** Ruxsatsiz kirish, yoki Karta/MKHRdan ruxsatsiz foydalanish bo'yicha shubha tug'ilganda, ular orqali ruxsatsiz operatsiyalar amalga oshirilganda, darhol Bankni xabardor qilish va Kartani bloklash bo'yicha choralar ko'rish.
- 4.1.10.** Bankdan firibgarlik operatsiyalarining oldini olish uchun kartadan foydalanishni to'xtatish zarurligi to'g'risida har qanday bildirishnoma (yozma, SMS, qo'ng'iroq, push-bildirishnoma yoki boshqa) olinganidan so'ng, Karta egasi kartadagi barcha operatsiyalarni darhol to'xtatishi va batafsil ma'lumot olish uchun Bank bilan bog'lanishi shart.
- 4.1.11.** Kartaga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq SMS-xabarlarida olingan foydalanuvchi nomlari, tasdiqlash kodlari, parollar va boshqa maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga (shu jumladan Bank xodimlariga) oshkor qilmaslik yoki o'tkazmaslik. Ushbu ma'lumotlarning oshkor etilishi mijozning hisob raqamlariga ruxsatsiz kirishga va mablag'larning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Firibgarlik xolatlarini oldini olish maqsadida SMS orqali kelgan kodlarni (loginlar, parollar va boshqa shaxsiy ma'lumotlar) uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.
- 4.1.12.** Kartani olgandan so'ng, Karta egasi kartaning orqa tomonidagi maxsus belgilangan maydonchaga o'z imzosini qo'yishi shart.
- 4.1.13.** Chet elga sayohat qilishdan oldin, Karta egasi Bank tomonidan taqdim etilgan bank kartalarida firibgarlik xavfi yuqori bo'lgan mamlakatlarning amaldagi ro'yxati bilan tanishishi va ushbu mamlakatlarda kartadan foydalanishda tegishli choralarni ko'rish shart.
- 4.1.14.** Agar bank kartasi yordamida to'lovni amalga oshirgan holda buyurtma qilingan mahsulot/xizmatni sotib olishdan bosh tortsa, to'langan pulni naqd pulsiz tarzda hisobvaraqqaga kirim qilish yo'li bilan qaytarilishini savdo nuqtasidan talab qilish.
- 4.1.15.** Karta ma'lumotlarining maxfiyligi, shu jumladan PIN-kod, CVV/CVC- va onlayn to'lovlar uchun parollarini (3D Secure) saqlash uchun oqilona choralarni ko'rish. Karta egasi ko'rsatilgan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim qilmasligi, uchinchi shaxslar uchun ochiq bo'lgan joylarda yozib olmasligi yoki Internet saytlaridagi shakllarni avtomatik to'ldirish uchun ishlatmasligi kerak.
- 4.1.16.** MKHR bo'yicha ijobiy balans doirasida operatsiyalarni amalga oshirish. Agar texnik overdraft yuzaga kelsa, texnik overdraft yuzaga kelgan kundan boshlab 14 kalendar kun ichida uni to'lash.
- 4.1.17.** MKHR bo'yicha operatsiyalarni mustaqil nazorat qilish, to'lov instrumenti (terminal, imprinter, bankomat va boshqa qurilma)da shakllantirilgan cheklarni saqlash. Karta yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun javobgar bo'lish.



- 4.1.18.** Karta raqami blokka qo'yilgan yoki Stop-list ro'yxatiga joylashtirilgunguniga qadar uchinchi shaxslar tomonidan yo'qotilgan karta bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan Bank xarajatlarini qoplash.
- 4.1.19.** Karta yo'qolgan, o'g'irlangan yoki PIN-kod oshkor qilingan taqdirda, Karta egasi darhol Bankni har qanday usulda xabardor qilishi kerak (telefon orqali, Bank ofisiga tashrif buyurib va hokazo.). Kartani blokirovka qilish uchun Karta egasi kerakli ma'lumotlarini (arizada ko'rsatilgan kod so'zi) identifikatsiya uchun taqdim qilishi kerak. Karta egasi tomonidan Bankning koll markaziga telefon qilish orqali bank kartasini blokirovka qilish to'g'risidagi og'zaki arizasi, Karta egasi tomonidan 3 (uch) bank kuni ichida Bankka yozma ravishda taqdim qilish kerak. YOzma ariza o'z vaqtida taqdim qilinmasa Bank karta blokirovkasini rad etish deb hisoblashi mumkin.
- 4.1.20.** Kartani uning amal qilish muddati tugaganidan, shartnoma bekor qilingandan so'ng, shuningdek, karta shikastlangan yoki mexanik zarar ko'rgan yoki ilgari yo'qotilganligi e'lon qilingan karta topilgan taqdirda Bankka qaytarish.
- 4.1.21.** Kartadan noqonuniy foydalanishni bartaraf etish bilan bog'liq Bankning haqiqatda qilgan harajatlari, shuningdek ushbu shartnoma shartlari Karta egasi tomonidan buzilishi natijasida Bankning yo'qotishlarini qoplash.
- 4.1.22.** MKHRga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilgan taqdirda, Karta egasi Bank tomonidan noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'lari to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida mablag'larni Bankka qaytarishi shart. To'lovni Bank hisob raqamiga o'tkazish yoki Bank bilan kelishilgan boshqa yo'l bilan amalga oshirish mumkin.
- 4.1.23.** Karta tokenlashtirilganda Karta egasi:
- 4.1.23.1.** Qurilmani ixtiyoriy ravishda uchinchi shaxsga taqdim qilganida, mobil ilova /Tokenni o'chirishi yoki **4.1.24**-bandga muvofiq vaqtincha blokirovka qilishi kerak.
- 4.1.23.2.** Qurilma yo'qolgan/o'g'irlangan va/yoki token buzilgan taqdirda, **4.1.24**-bandga muvofiq Tokenni o'chirish / bloklash kerak.
- 4.1.24.** Kartani yo'qotish / o'g'irlatish/ qurilmani ixtiyoriy ravishda taqdim qilish / qurilmani yo'qotish / qurilmani o'g'irlatish va / yoki Tokenni buzish holatlarida darhol quyidagi harakatlarni amalga oshirish lozim:
- 4.1.24.1.** Kartani / Tokenni blokirovka qilish uchun yozma ariza bilan bankning istalgan bo'limiga murojaat qilish. Arizada Karta egasining familiyasi, ismi va sharifi va blokirovka sababi ko'rsatilishi lozim.
- 4.1.24.2.** Mobil yoki internet banking orqali kartani/Tokenni bloklash.
- 4.1.24.3.** Bank aloqa markazi (Bank veb-saytida ko'rsatilgan) telefon raqamlariga yoki 4004 qisqa raqami orqali kod so'zi va / yoki mijozning qo'shimcha shaxsiy ma'lumotlari (shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, aloqa ma'lumotlari, hisob harakati) yordamida kartani/ Tokenni blokirovka qilish uchun murojaat qilish.
- 4.1.25.** Mustaqil ravishda soliq organlari bilan barcha hisob-kitoblarni amalga oshirish.
- 4.1.26.** Bankdan mazkur shartnoma bekor qilinishi bo'yicha yozma xabarnoma olgandan so'ng, 10 (O'n) kalendar kuni ichida Karta egasi uchun mazkur shartnoma bo'yicha chiqarilgan barcha kartalarni Bankka qaytarish.
- 4.1.27.** Bankning rasmiy veb-saytiga muntazam ravishda 10 kalendar kun ichida kamida bir marotaba tashrif buyurib, Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar, Bank qoidalar va Bank tariflari to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish.
- 4.1.28.** Vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish maqsadida Karta egasi MKHR bo'yicha sliplar, kvitansiyalar, hisobvaraqlar va amaliyotlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni saqlab qo'yishi lozim.

**4.2. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:**

- 4.2.1.** Karta egasidan Ariza qabul qilingandan so'ng, unga 3 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda, agar bunday Ariza Bankning mintaqada (viloyatlar) joylashgan tarkibiy bo'linmalari orqali qabul qilingan bo'lsa bu muddat 10 ish kunidan oshmagun muddatda, MKHR ochish va Karta orqali operatsiyalarni amalga oshirishda foydalanish uchun Karta taqdim etishi lozim.
- 4.2.2.** Karta egasiga tunu-kun davomida Karta yo'qolganligi va/yoki Kartadan ruxsatsiz foydalanish to'g'risida xabarnoma yo'llash imkoniyatini yaratish.
- 4.2.3.** Karta yo'qolganligi, o'g'irlanganligi va/yoki kartadan ruxsatsiz foydalanilishi to'g'risida Karta egasi yoki ish haqi loyihasi bo'yicha shartnoma tuzilgan Korxonaning arizasiga muvofiq Kartani blokka qo'yish.
- 4.2.4.** Karta egasining og'zaki iltimosiga binoan 3 (Uch) bank kunigacha vaqtincha blokirovka qilish. Og'zaki qilingan murojaatni tasdiqlash uchun Karta egasi belgilangan muddat ichida Bankka yozma ariza topshirishi kerak. Yozma arizasi taqdim qilinmasa, Bank kartani blokirovkadan chiqarish huquqiga ega.
- 4.2.5.** Karta egasini Kartadan foydalanish qoidalar va Bankning amaldagi Tariflari bilan tanishtirish.
- 4.2.6.** Karta egasiga kartadan foydalanish shartlari, xavfsizlik choralari, e'tiroz arizalarini berish usullari va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Bank kartasidan foydalanish qoidalar bilan elektron shaklda bankning rasmiy veb-saytida yoki Mijoy so'roviga asosan qog'oz shaklda berish orqali tanishish imkoniyatini ta'minlash.
- 4.2.7.** MKHRdagi qoldiq mablag'lari miqdorida Kartadan foydalangan holda bajarilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitobni amalga oshirilishini ta'minlash.
- 4.2.8.** Karta egasining foydasiga olingan mablag'larni, Bank tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlari (to'lov topshiriqlari, o'tkazmalar va boshqalar) olingan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida.), hisob ochilgan valyutadagi karta hisobvarag'iga o'tkazish. Mablag'lar avtomatik ravishda hisob raqamga o'tkaziladi, Karta egasidan yoki boshqa shaxslardan qo'shimcha tasdiqlash talab qilinadigan hollar bundan mustasno.
- 4.2.9.** Karta egasini Bank Tariflari va Qoidalariga kiritilgan barcha o'zgarishlar to'g'risidagi Bankning bo'limlarida, shuningdek Bankning rasmiy veb-sayti - www.ofb.uz ma'lumotlarni joylashtirish yo'li bilan xabardor qilish.
- 4.2.10.** Karta egasiga tegishli bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq sir saqlanishini kafolatlash.
- 4.2.11.** Shartnoma bekor qilingan (MKHR yopilgan) taqdirda Karta egasiga Kartadan foydalanish bilan bog'liq hisob-kitoblar to'liq tugallangandan, shuningdek Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatalar bajarilgandan so'ng Kartadagi qoldiq pul mablag'larini qaytarish. Bu holda, Bank kartasi bankka qaytarilgan va/yoki qaytarilmagan Kartani lokal (xalqaro) stop-listga kiritilgan paytdan boshlab 30 kalendar kuni o'tgandan keyin qoldiq pul mablag'lari qaytarib beriladi.
- 4.2.12.** Karta egasining talabiga binoan amaldagi qonunchilikka muvofiq karta hisobvarag'idan ko'chirmalar, kartadagi operatsiyalarni tasdiqlovchi to'lov hujjatlarining nusxalari, shuningdek kartadan foydalanish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni taqdim etish.

5. TOMONLARNING HUQUQLARI**5.1. Karta egasi quyidagi huquqlarga ega:**

- 5.1.1.** Karta bo'yicha operatsiyalar, kirim va debet qilingan pul mablag'lari to'g'risida belgilangan davr uchun ma'lumotlarni o'z ichiga olgan karta hisobvarag'idan ko'chirma olish. Ko'chirma amaldagi tarif bo'yicha xizmat uchun to'lov olinishi



sharti bilan Bank ofisiga shaxsan murojaat qilganda qog'oz shaklida taqdim etiladi.

- 5.1.2.** Karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ushbu shartnomaga muvofiq erkin tasarruf etish. Xususan, Karta egasi quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega:
- Chakana savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida, shu jumladan Internet tarmog'ida tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish.
 - Kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish.
 - Bankomatlar va naqd pul olish punktlarida naqd pul olish.
 - Boshqa hisoblarga pul o'tkazmalarini amalga oshirish.
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu shartnoma shartlariga zid kelmaydigan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish.
- 5.1.3.** Naqd pul va naqd pulsiz shaklda mablag'larni MKHRga kirim qilish.
- 5.1.4.** Berilgan ko'chirmadan norozi bo'lganda yoki amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha nizoli holatlar yuzaga kelganda Bankka yozma ravishda shikoyat taqdim etish.
- 5.1.5.** Karta yo'qotilganda (o'g'irlanganda) yoki amal qilish muddati tugagan taqdirda Kartani qayta chiqarish uchun Bankka tegishli ariza bilan murojaat qilish.
- 5.1.6.** Karta amal qilishini to'xtatish (bloklash) yoki muddatidan oldin bekor qilish, yoki MKHR bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatish, yohud Bankka tegishli yozma ariza taqdim etish orqali Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish.
- 5.1.7.** Bankka tegishli yozma ariza berish orqali Kartani to'xtatib qo'yish (bloklash) yoki uning amal qilish muddatini, yoki MKHR bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatish, yoki shartnomani oldindan bekor qilish.
- 5.1.8.** Asosiy MSKHRga bog'langan qo'shimcha bank kartasini ochish.
- 5.1.9.** Kartadan foydalanish, shu jumladan tokenlashtirish paytida Karta egasi naqd pulni bir necha usul bilan olishi mumkin:
- 5.1.9.1. Naqd pul olish punktlari orqali.
 - 5.1.9.2. Bankomat (ATM mashinasi) /boshqa qurilmalar orqali.
 - 5.1.9.3. Tegishli xizmatni taqdim etuvchi Bank ofislari orqali.
- 5.1.10.** Majburiyat va ushbu shartnoma shartlarini o'z zimmisiga olgan holda, o'z farzandiga yangi MSKHR yoki mavjud asosiy MSKHRga bog'langan xolda karta ochish.
- 5.1.11.** Token Karta egasi tomonidan mobil qurilmadan mustaqil ravishda o'chirilishi mumkin.
- 5.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:**
- 5.2.1.** MKHR bo'yicha minimal balans miqdorini bir tomonlama o'rnatish, o'zgartirish yoki bekor qilish. Minimal balans to'g'risida ma'lumot va uni qo'llanishi shartlari to'g'risida ma'lumot Bank tariflarida keltirib o'tilgan.
- 5.2.2.** Karta yordamida operatsiyalar bo'yicha cheklov o'rnatish va cheklovlarni o'zgartirish. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra istalgan vaqtda kartadan foydalangan holda operatsiyalar, xizmat va funktsiyalar majmuini o'zgartirish.
- 5.2.3.** Karta egasi ariza berilgan paytdan boshlab 6 (olti) oydan ortiq muddat davomida Kartani olish uchun Bankka tashrif buyurmasa, Bank kartani bekor qilishga haqli. Kartani bekor qilish sanasidan oldingi davr uchun Karta egasi tomonidan to'langan haq qaytarilmaydi.
- 5.2.4.** SHartnoma shartlari, Tariflar va Bankning Kartadan foydalanish qoidalariga o'zgartirishlarni Bankning axborot devorlariga va/yoki Bankning Internet tarmog'idagi veb-saytiga tegishli ma'lumotlarni joylashtirish yo'li bilan Karta egasini mazkur o'zgarishlar kuchga kirishidan 10 kalendar kundan avval xabardor qilgan holda kiritish.



- 5.2.5.** Karta egasidan bildirishnoma olganda kartadan va/yoki uning rekvizitlaridan foydalanishni to'xtatib turish, cheklash yoki to'xtatish, va/yoki karta bo'yicha operatsiyalarni blokirovka qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:
- Karta egasining tashabbusi bilan: Karta egasining yozma arizasi va / yoki xabarnomasi asosida.
 - Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda: ushbu shartnoma shartlari va/yoki Bank kartasidan foydalanish qoidalarida Karta egasi tomonidan buzilgan taqdirda.
 - Firibgarlikda gumon qilingan taqdirda: agar kartadan foydalangan holda taqiqlangan operatsiyalar yoki Karta egasi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi to'g'risida asosli shubhalar mavjud bo'lsa.
 - Texnik sabablarga ko'ra: kartaning xavfsiz ishlashiga to'sqinlik qiladigan texnik nosozliklar bo'lsa.
 - Vakolatli organlarning qarori bilan: agar tegishli qaror vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilingan bo'lsa.
 - Mijoz bank kartasidan 1 (bir) yil davomida foydalanmagan taqdirda.
 - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 5.2.6.** Texnik overdraft yuzaga kelgan taqdirda karta(lar) va/yoki uning rekvizitlaridan foydalanib operatsiyalarni amalga oshirilishini to'xtatib qo'yish, Karta egasi Bank oldidagi qarzdorligini qoplagandan so'ng qayta ishga tushiriladi
- 5.2.7.** Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilish maqsadida karta operatsiyalarining qonuniyligi va asosiligi tasdiqlovchi quyidagi hujjatlarni Karta egasidan talab qilishga haqli:
- Karta egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari.
 - Karta operatsiyalari uchun ishlatiladigan mablag'larning kelib chiqish manbasini tasdiqlovchi hujjatlar.
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.
- 5.2.8.** Karta egasiga berilgan rekvizitlar bo'yicha axborot SMS xabarlarini yuborish.
- 5.2.9.** Karta egasi tomonidan ushbu shartnoma talablari buzilgan taqdirda, Bank tomonidan bir tomonlama tuzilgan shartnomani bekor qilish va kartani bloklash.
- 5.2.10.** O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan mijozlar tomonidan respublika banklaridagi hisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi yoki xalqaro to'lov tizimining emissiya tartibi o'zgargan taqdirda bank tomonidan shartnoma shartlariga bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

6. MKHR BO'YICHA KOMPLAYENS CHORALAR

- 6.1.** Karta egasi hisobraqam ochishda quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:
- 6.1.1.** Shartnoma bo'yicha Bank o'zining boshqa huquqlariga qo'shimcha ravishda Karta egasining tranzaksiyalarini amalga oshirishni kechiktirishi va qo'shimcha ravishda tekshirish huquqiga egaligini karta egasi tan oladi.
- 6.1.2.** Bank amalga oshirilayotgan tranzaksiyani (pul mablag'larining kelib chiqish manbasi, tranzaksiyaning qonuniyligi va asosiligi va boshqalar) to'liq o'rganish uchun Karta egasiga so'rovnoma yuborishga haqli, o'z navbatida Karta egasi qisqa muddat ichida barcha ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 6.1.3.** Bank amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki iqtisodiy sanksiyalar bilan bog'liq qonun va qoidalarini buzishi mumkinligini belgilaydi.
- 6.2.** Bank quyidagi holatlarda Karta egasi tomonidan amalga oshirilayotgan tranzaksiyani to'xtatib qo'yadi (rad etadi):



- 6.2.1. Agar Karta egasining tranzaksiyasi Bank tomonidan qo'shimcha o'rganilishi uchun zarurat yuzaga kelganda.
- 6.2.2. Agar Karta egasining tranzaksiyasi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar doirasiga kirs.
- 6.2.3. Agar Karta egasi tranzaksiyasi sanksiyalarni chetlab o'tish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa.
- 6.2.4. Agar tranzaksiya Bankning fikriga ko'ra shubhali deb hisoblansa va/yoki hukumat, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalarni chetlab o'tish belgilariga ega bo'lsa.
- 6.3. Agar Karta egasi tomonidan amalga oshiralayotgan tranzaksiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va Bankning ichki qoidalarini buzmayotganligi Bank tomonidan belgilansa, shuningdek mazkur tranzaksiyalar iqtisodiy sanksiyalarga tushmasa (ularni chetlab o'tish yo'llari bo'lmasa), Bank tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun avval o'rnatilgan vaqtinchaliq cheklovni bekor qiladi.
- 6.4. Agar Mijozga hisob raqam ochishda hamda hisob raqam orqali amalga oshirilishi ko'zda tutilgan operatsiyalar oqibatida Bankka nisatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llanish xavfi yuzaga kelgan taqdirda Bank Mijozga hisob raqam ochishni va operatsiyalarni amalga oshirishni rad etishga haqli.
- 6.5. Agar Bank tomonidan Karta egasining hisob raqami noqonuniy tranzaksiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalanilayotganligi yoki foydalanishi mumkinligi aniqlansa, shuningdek mazkur tranzaksiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank ichki qoidalarini, hamda daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish qonunchiligini buzsa, shuningdek iqtisodiy sanksiyalarga tushib qolsa, Bank mazkur tranzaksiyani bir tomonlama to'xtatib qo'yish va Karta egasi manziliga xabarnoma jo'natib, hisobraqam bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib qo'yish huquqiga ega.
- 6.6. Karta egasining hisob raqami bo'yicha amaliyotlar Bank tomonidan to'xtatib qo'yilgandan so'ng 30 kalendar kun ichida Karta egasi hisob raqamni yopish va shartnomani bekor qilish bo'yicha Bankka ariza topshirishi kerak.
- 6.7. Karta egasi bank hisob raqami ochish jarayonida taqdim etilgan manzilga Shartnomani bir tomonlama bekor qilish to'g'risida ogohlantirish yuborilgan sanadan 30 kalendar kun o'tgandan so'ng Shartnoma bekor qilingan deb topiladi, bunda Karta egasi tomonidan bank hisob raqamini yopishga ariza topshirilishi ta'lab etilmaydi.

7. HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

- 7.1. Karta egasiga ochilgan MKHR to'lov tizimi imkoniyatidan kelib chiqqan holda horijiy valyutada (AQSh dollari) yoki milliy valyutada yuritiladi.
- 7.2. Bank MKHRga xizmat ko'rsatishni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, XTT qoidalarini, ushbu shartnoma shartlari, bank kartasidan foydalanish qoidalarini va bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.
- 7.3. MKHR hisobini to'ldirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq naqd pul yoki naqd pulsiz to'lov yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 7.4. Agar Tariflarda boshqacha tartib ko'rsatilmagan bo'lsa, MKHRdagi har kunlik qoldiq pul mablag'lariga foizlar hisoblanmaydi.
- 7.5. Kartani chiqarish/qayta chiqarish va Karta/MKHRning amal qilish muddati davomida unga xizmat ko'rsatilganligi uchun Karta egasi amaldagi Tariflarga muvofiq haq to'laydi.



- 7.6.** Agar karta bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiya valyutasi MKHR valyutasidan farq qilsa, mablag'lar operatsiya amalga oshirilayotgan kunda yoki operatsiya (tranzaksiya)ning moliyaviy tasdiqlanish kelib tushgan sanada amalda bo'lgan Bank («Orient Finans» XATB) tomonidan belgilangan yoki XTT kursi bo'yicha MKHR valyutasiga konvertatsiya qilinadi.
- 7.7.** Karta egasi Bankka amaldagi qonunchilikka, mazkur shartnoma shartlari, amaldagi Tariflarga muvofiq Karta/MKHR bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha Bank oldida yuzaga kelgan bank komissiyalari, qarzdorlik, jarima, Texnik overdraft summasi va boshqa summalarini Karta egasining MKHRda saqlanayotgan pul mablag'lari hisobidan shartsiz va chaqirib olinmaydigan tarzda Karta egasining roziligi va qo'shimcha topshirig'isiz echib olish huquqini beradi va bunga o'z roziligini (oldindan olingan aksept) bildiradi.
- 7.8.** MKHR bo'yicha to'lovlar Karta egasining identifikatsiya vositalari orqali tasdiqlangan roziligi asosida karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.
- 7.9.** To'lov tizimining talabiga binoan barcha (VISA) xalqaro bank kartalari (NFC) kontaktsiz to'lov texnologiyasini qo'llab-quvvatlashi kerak.
- 7.10.** Tokenlashtirish texnologiyasi va NFC modulidan foydalangan holda mobil telefoni orqali to'lov mavjud bo'lganda, bank kartalari mijozning xohishiga binoan pul mablag'larini to'lash va echib olish uchun ushbu tizimlarga ulanishi mumkin.
- 7.11.** Token olti (6) yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.
- 7.12.** To'lovlarni amalga oshirishda Karta egasining roziligini olish va tasdiqlash tartibi va usullari:
- Karta egasi to'lovni amalga oshirish uchun Karta PIN-kodini teradi va/ki uning rekvizitlaridan foydalanadi.
 - Avtorizatsiya tartiboti o'tkaziladi.
 - Bank Karta egasi oldindan bergan akseptga asosan to'lovlarni MKHR hisobidan pul mablag'larini chiqarish orqali amalga oshiradi.
- 7.13.** Bank Karta egasining MKHRdan quyidagi mablag'larni uning topshirig'isiz va rozilgisiz echib oladi:
- 7.13.1.** Karta(kartalar) va/yoki rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan operatsiya summalarini.
- 7.13.2.** MKHRga xizmat ko'rsatilganlik uchun haqlarni (foizlar, jarima, harajat va boshqa to'lovlar).
- 7.13.3.** Agar Bank Tariflarida abonent to'lovi (har oylik yoki yillik) nazarda tutilgan bo'lsa, abonent to'lovini bo'nak sifatida.
- 7.13.4.** Texnik overdraft summasi.
- 7.13.5.** Bank yoki uchinchi shaxslar aybi bilan MKHRga noto'g'ri kirim qilingan summalar.
- 7.13.6.** Mazkur shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va shartlarda mazkur shartnoma hamda Bank va karta egasi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bo'yicha Bank oldidagi qarzdorlik summasi, shuningdek qarzdorlikni undirish bilan bog'liq bo'lgan Bank harajatlari va jarimalar summasi, hamda Karta egasining boshqa pul majburiyatlari.
- 7.13.7.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq undiriladigan summalar, shu jumladan tegishli davlat organlarining qarori bilan undirish lozim bo'lgan summalar.
- 7.13.8.** ijro hujjatlari bo'yicha undiriladigan summalar.
- 7.13.9.** Amaldagi qonun hujjatlari va bank bilan Karta egasi o'rtasida tuzilgan shartnomalar talablariga muvofiq boshqa summalar.



- 7.14.** Agar ushbu shartnomada ko'rsatilgan summalarni undirish uchun pul mablag'lari bo'lmasa yoki etarli bo'lmasa, Karta egasining Bankda ochilgan har qanday hisobvarag'idan undirib olinadi. Bu holda Bank Karta egasining MKHRda saqlanayotgan pul mablag'larini (milliy va xorijiy valyutada) Bank oldida yuzaga kelgan qarzdorlik summasini qoplash uchun etarli bo'lgan miqdorda mustaqil ravishda echib oladi.

8. "VISA INFINITE" VA "MASTERCARD WORLD ELITE" PREMIUM KARTASI XIZMATLARINI MIJOZLARGA TAQDIM ETISH SHARTLARI

- 8.1.** Mazkur bo'limda nazarda tutilgan shartlar va imtiyozlar faqat Visa Infinite va MasterCard World Elite premium karta Egalariga tatbiq etiladi/qo'llaniladi.
- 8.2.** Bank premium kartalar ishlatish shartlari va boshqa ma'lumotlarini www.ofb.uz saytida joylashtiradi.
- 8.3.** Premium kartaning afzalliklari va undan foydalanish shartlari:
- butun dunyo bo'ylab hamkorlar tomonidan chegirmalar va eksklyuziv takliflar taqdim etiladi.
 - **Kons'berj-xizmati** – 24/7 rejimida butun dunyo bo'ylab turli xil xizmatlarni (mexmonxona, restoranlarni bronlash, aviachiptalarni sotib olish va boshqalar) olish va tashkillashtirishda yordam ko'rsatish. Kons'berj (<https://app.konsierge.com/lite.html>) chat-boti 4 ta messendjerning birida (WatsApp, Telegram, Viber, Facebook) 24/7 rejimida (dam olish kunlarisiz va bayram kunlarisiz) faoliyat yuritadi.
 - **Loungekey** – butun dunyo bo'ylab xalqaro aeroportlarning biznes-zallariga ustivor kirish imkoniyati, shuningdek aeroportlarda joylashgan duty-free va do'konlarda, restoranlarda taqdim etiladigan maxsus taklif va chegirmalar. Aniq bir aeroportdagi mavjud biznes-zallarni va takliflarni www.loungekey.com/orientfinansbank havolasi orqali yoki Loungekey mobil ilovasi orqali tekshirib ko'rish mumkin. Bir yil davomida mazkur karta egalariga 2 (ikki) marta biznes-zallariga bepul kirish imkoni taqdim etiladi. Keyingi kirishlar uchun alohida to'lov undiriladi.
- 8.4.** Premium kartalar bo'yicha amaldagi chegirma va takliflarni xizmat ko'rsatuvchi bank xodimidan yoki www.ofb.uz saytidan olish mumkin.
- 8.5.** Premium kartalar bo'yicha amaldagi taklif va dasturlarni uchinchi tomonlar etkazib beradilar (keyingi o'rinlarda – xizmatlarni etkazib beruvchilar). Mazkur jarayonda bank o'rtadagi tomon sifatida qatnashadi va tegishli xizmat va uning sifatiga javob bermaydi.
- 8.6.** Premium kartalar bo'yicha keltirib o'tilgan taklif va dasturlar bo'yicha Mijozning e'tirozi yuzaga kelgan taqdirda, Mijoz Bankka yozma ravishda murojaat etadi hamda Bank xizmatlarni etkazib beruvchilar bilan hamkorlikda murojaatni ko'rib chiqadi. Bunday holatlarda Bank o'rtadagi tomon sifatida ishtirok etadi va natijasi bo'yicha javobgarlikni olmaydi.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 9.1.** Tomonlar shartnoma shartlarini buzganlik uchun qonunchilik va ushbu shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 9.2.** Asosiy Karta egasining xabarisiz qo'shimcha karta orqali tovar va xizmatlar uchun amalga oshirilgan to'lovlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.
- 9.3.** Karta egasi Bankka ishonchli(haqiqiy) bo'lmagan ma'lumot berganligi uchun javobgar bo'ladi.
- 9.4.** Karta egasi Karta va/yoki undagi ma'lumotlardan uchinchi shaxslar foydalanishi (jumladan Internet tarmog'ida operatsilarni amalga oshirish va ma'lumotlarni uzatish), Karta egasi qasddan yoki Bankning kartadan



- foydalanish qoidalarini buzgan holda ehtiyotsizligi natijasida amalga oshirilgan operatsiyalar va ularning oqibatlari uchun moddiy javobgar bo'ladilar.
- 9.5.** Karta yo'qotilgan (yo'qolgan yoki o'g'irlangan) taqdirda Bank tomonidan bank kartasi yo'qolganligi haqida yozma murojaat olingunga qadar, uchinchi shaxslar tomonidan kartadan foydalanib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun Karta egasi javobgardir.
- 9.6.** Karta yordamida uning PIN-kodidan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar Karta egasi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi va bu bo'yicha e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.
- 9.7.** Bank o'z nazorat tashqari bo'lgan va to'lov tizimlari, aloqa tizimlari, hisob-kitob, ma'lumotlarga ishlov berish va uzatish tizimlarining ishida uzilishlar bo'lish holatlarida yuzaga kelgan nizoli vaziyatlar uchun, shuningdek Karta egasining, ya'ni: Karta va/yoki uning rekvizitlari, va/yoki PIN-kodi uchinchi shaxslarga berish, Kartani PIN-kod bilan birgalikda saqlash, hamda mazkur Shartnomaning shartlariga zid ravishda boshqa aybli harakatlari oqibatida yuzaga kelgan holatlar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 9.8.** Karta egasi Karta va PIN-kod, hamda boshqa rekvizitlarni xavfsiz tarzda saqlash uchun mas'ul hisoblanadi.
- 9.9.** UZCARD yoki HUMO tizimlarining ish faoliyatida boshqa tashkilotlarning (YUPM yoki MBPM) aybi bilan to'xtab qolish holatlari uchun Bank javobgar bo'lmaydi.
- 9.10.** Karta egasi uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxsga oshkora etganda, shaxsan o'zi ma'sul xisoblanadi.
- 9.11.** Tomonlar mazkur shartnoma shartlarini to'liq yoki qisman bajarmaslik ushbu shartnomaga qo'shilgandan keyin engib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muqarrar holatlar natijasida vujudga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadilar.
- Bunday holatlarga harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar va ish tashlashlar, davlat va mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish imkoniyatini cheklovchi mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari, shu jumladan uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari, shuningdek, xalqaro to'lov tizimlari faoliyatini uchinchi shaxslarning aybi bilan to'xtatib turish yoki uzilishlar, texnik nosozliklar (elektrenergiyasi uzatishdagi uzilish, aloqa yo'qligi) natijasida kelib chiqadigan holatlar va boshqa istalgan turdagi Bankning oqilona nazoratidan tashqarida bo'lgan vaziyatlar kiradi.
